TURLI TIZIMDAGI TILLAR (RUS, QORAQALPOQ, INGLIZ TILLARI) PAREMIOLOGIYASIDA “YAXSHILIK” VA “YOMONLIK” KONSEPTLARINING SEMANTIK O‘ZGARISHI.

Trapova Gulira’no Nabijon qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, 3-kurs tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus, qoraqalpoq va ingliz tillari paremiologiyasida "yaxshilik" va "yomonlik" konseptlarining leksik-semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur konseptlarning maqol-matallarda ifodalanish usullari, ularning milliy-madaniy mazmuni, pragmatik xususiyatlari va semantik transformatsiyalari yoritilgan. Tahlil natijasida uch tilda yaxshilik va yomonlik konseptlarining umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, ularning xalq dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yaxshilik konsepti, yomonlik konsepti, paremiologiya, maqol-matallar, lingvomadaniyat, semantik tahlil, qiyosiy tilshunoslik.*

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный лексико-семантический и лингвокультурологический анализ концептов «добро» и «зло» в паремиологии русского, каракалпакского и английского языков. Рассматриваются особенности их репрезентации в пословицах и поговорках, национально-культурная специфика, прагматические характеристики и семантические трансформации. В результате исследования выявлены универсальные и национально-специфические особенности данных концептов, отражающие ценностные ориентиры и мировоззрение носителей исследуемых*

Ключевые слова: *концепт добра, концепт зла, паремиология, пословицы и поговорки, лингвокультурология, семантический анализ, сопоставительное языкознание.*

Abstract. *This article presents a comparative lexical-semantic and linguocultural analysis of the concepts of "Good" and "Evil" in the paremiology of the Russian, Karakalpak, and English languages. The study examines the ways these concepts are represented in proverbs, their national and cultural characteristics, pragmatic features, and semantic transformations. The findings reveal both universal and culture-specific aspects of the concepts, demonstrating their close relationship with the worldview, value system, and cultural identity of the speakers of the three languages.*

Keywords: *concept of good, concept of evil, paremiology, proverbs, linguocultural studies, semantic analysis, comparative linguistics.*

Kirish:

Paremiologiyadagi semantik o‘zgarishlar madaniy, tarixiy va kognitiv omillar ta’sirida maqol-matallarning ma’nolari o‘zgarishining ko‘p darajali jarayonidir. Bunday o‘zgarishlar ifodalarning nafaqat tashqi ma’nosini, balki ularning konseptual strukturasining chuqur mexanizmlarini ham qamrab oladi. Yu.D.Apresyan ma’nolar dinamikasining yangi ijtimoiy voqeliklar, hayotiy amaliyotlarning transformatsiyasi va til egalarining shaxsiy tajribasining o‘zgarishi ta’sirida qayta shakllanadigan, "olamning sodda manzarasi" evolyutsiyasi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Asosiy qism:

Semantik o‘zgarishlar nafaqat tilning yangilanishini, balki ijtimoiy tushunchalarning qayta ko‘rib chiqilayotganini ham ko‘rsatadi V.V. Karasik bunday transformatsiyalarni jamiyatning qadriyat dominantlarining o‘zgarishi orqali tushuntiradi.

Paremiyalar aksiologik ko‘rsatmalarning tashuvchisi sifatida xizmat qilishi sababli, ijtimoiy ahamiyatli oppozitsiyalardagi o‘zgarishlar *(masalan, "mehnat - dam olish," "o‘zimizniki - o‘zganiki," "yaxshilik - yomonlik")* ularning mazmunining qayta talqin qilinishiga olib keladi.

Ayrim maqol-matallar o‘zining me’yoriylik sifatini yo‘qota boshlab, kinoyaviy yoki tanqidiy talqinga ega bo‘ladi, bu aksiologik doiraning siljiganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, semantik o‘zgarishlar ijtimoiy-madaniy dinamikaning indikatori bo‘lib xizmat qiladi.

Kognitiv tilshunoslik bu jarayonning o‘ziga xos talqinini taklif etadi. Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, paremiyalar ma’nolarining o‘zgarishi madaniy konseptuallashtirishning asosida yotuvchi bazaviy metaforik modellarning transformatsiyasi bilan shartlanadi. *"Life is a journey, work is value, knowledge is light"* kabi metaforalarni qayta tushunib olish ushbu metaforalarga asoslangan an’anaviy maqol-matallarning talqinining o‘zgarishiga olib keladi. Bazaviy metafora o‘z ahamiyatini yo‘qotganda yoki boshqasi bilan almashganda, paremiyaning semantikasi ham o‘zgara boshlaydi.

A.Vejbitskaya semantik primitivlar nazariyasiga tayanib, universal ma’noli elementlarning haqiqatda ham saqlanib qolishini, lekin ularning madaniy interpretatsiya va pragmatik qo‘llanilish usullari turlicha bo‘lishini tasdiqlaydi. A.Vejbitskaya pragmatik komponentning, ko‘pincha, semantik o‘zgarishlarda hal qiluvchi bo‘lib qolishini ta’kidlaydi: maqol-matal formal ma’nosini saqlab qolishi mumkin, lekin uning qo‘llanilishi yangi tus oladi - kinoyali, tanqidiy yoki hatto asl ma’nosiga zid bo‘ladi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar paremiologiyadagi semantik ko‘chimlarning bir necha turini ajratib ko‘rsatadi:

1. Pragmatik ko‘chish - denotativ mazmuni o‘zgarishsiz qo‘llanish shartlarining o‘zgarishi.

2. Aksiologik siljish - paremiya asos bo‘lib turgan qadriyatlarni qayta baholash.

3. Metaforik ko‘chish - ifodaning asosida yotgan konseptual metaforaning o‘zgarishi.

4. Diskursiv ko‘chish - maqol-matalning qo‘llanilishining yangi kontekstlarining paydo bo‘lishi *(masalan: memlar, reklama)*, bu uning funksiyalarining qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi.

Semantik ko‘chimlar tipologiyasi. "Yaxshilik" va "yomonlik" konseptlarini aks ettiruvchi paremiologik iboralarni o‘rganish, ularni tushunib olishda dinamik jarayonlarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu jarayonlar dunyoqarashning evolyutsiyasini - sakral va kollektivistikdan pragmatik va individualistikka o‘tishini aks ettiradi. Quyida semantik ko‘chimlarning asosiy turlari keltirilgan.

1. Odob-axloq → pragmatik. Rus tilida: *“Добро помни, а зло забывай.”* (Yaxshilikni esda tut, yomonlikni unut) ma’naviy totuvlikka va ma’naviy kamolotning ustuvorligiga yo‘naltirilgan an’anaviy yondashuvni anglatadi. Qoraqalpoq tilida: *"Jaqsınıń belgisi – birde töre, birde qul."* - axloqiy me’yorlarni bildiradi.

Ingliz tilidagi misol*: Honesty is the best policy* (Tashqi ko‘rinish - eng yaxshi siyosat) - ratsionalizatsiya tomoniga og‘ish: haqqoniylik nafaqat axloqiy kategoriya sifatida, balki jamiyatda muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida ham muhimdir.

Bu yerda ezgulikni ichki vazifa sifatida sakral-axloqiy nuqtayi nazardan qabul qilishdan, axloqning bahosi uning amaliy natijalari bilan belgilanadigan utilitar modelga o‘tish kuzatiladi.

2. Tangri ishi → sabab-oqibat aloqasi.

Rus tilida: *«На злого человека и солнце не светит.»* (Yomon odamga quyosh ham nur sochmaydi) - yomonlik xudoning jazo obyekti sifatida tushuniladi; oliy kuchlarning aralashuviga urg‘u beriladi.

Qoraqalpoq tilida: *"Jaqsınıń júzi – jánnet"* Bu maqol odamning ichki dunyosi bilan tashqi qiyofasi (yuzi) orasidagi bog‘liqlikni tushuntirib beradi. Ingliz tilidagi misol: What goes around comes around (Nima eksang, shuni o‘rasan) - mukofot yoki jazo hayotdagi tabiiy qonuniyat sifatida tushuniladi, ya’ni xatti-harakatlar xudoning aralashuvisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqibatlarga olib keladi.

Semantik o‘zgarish olamning teotsentrik nuqtai nazaridan (yaxshilik bilan yomonlikni xudoning irodasi boshqaradi) xatti-harakatlar bilan oqibatlar o‘rtasidagi

bog‘liqlik tabiiy ijtimoiy yoki psixologik qonuniyat sifatida qabul qilinadigan sekulyar, ya’ni karmal mukofot konsepsiyasiga tomon siljiydi.

3. Jamoaviylik → individualistik.

Rus tilida: *“Доброе братство милее богатства.”* (Og‘ayni totuv bo‘lsa ot ko‘p, ovsin totuv bo‘lsa osh ko‘p) - yaxshilik jamiyat, hamjihatlik va birlik kabi qadriyatlar orqali izohlanadi.

Qoraqalpoq tilida: *"Jaqsılıq jerde qalmaydı"*- Qoraqalpoq xalq maqoli bo‘lib, insonparvarlik, mehr-oqibat va chin yurakdan qilingan yaxshi ishlarning hech qachon hisobsiz qolmasligini, albatta, o‘z mehnatining mevasini berishini anglatadi.

Ingliz tilidagi misol: Every man for himself, and God for us all (Har kim o‘zi uchun, Xudo hammamiz uchun) - faqat nomigagina Xudoga murojaat qilish saqlangan holda, shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi ko‘rsatiladi.

Biz bu yerda dunyoni kollektivistik qabul qilishdan (unda yaxshilik = jamiyat ichidagi kelishuv va qo‘llab-quvvatlash) har kim o‘z farovonligi uchun o‘zi javobgar bo‘ladigan individualistik nuqtai nazarga o‘tishni ko‘ramiz.

4. Emotsional-ruhiy → funksional-ratsional. Ruscha misol: " Доброе слово лечит, злое калечит." (Yaxshi so‘z - jon ozig‘i, yomon so‘z - bosh qozig‘i) - so‘zning emotsional-psixologik ta’siriga urg‘u berilib, uning ruhiy salohiyati ko‘rsatiladi.

Qjraqalpoq tilida: *"Jılı sózge jılan ininen shığadı, qattı sózge musılman dininen shığadı".* Qattiq-qattiq so‘zlasang musulmon dindan chiqadi. Iliq (yaxshi) so‘z bilan muloyimlik har qanday odamni eritib, qiyin masalani yechishga kuchi yetishini bildiradigan xalq maqoli. Bu maqol insonning nutq madaniyati va mehribonligining qudratini ko‘rsatadi.

Ingliz tilida: Actions speak louder than words (So‘zdan ko‘ra ish hukmron) - pragmatik samaradorlik tomoniga siljish: baho so‘z bilan emas, ish-harakat bilan belgilanadi.

Bu yerda yaxshilik va yomonlikning ruhiy-emotsional modelidan xatti-harakatlarning ahamiyatini ularning samaradorligi bilan belgilovchi amaliy mezonga o‘tish jarayoni ko‘rsatilgan.

5. Normativlik → ironiyalilik. Hozirgi zamon madaniyati intertekstuallik bilan kinoyani tez-tez qo‘llaydi, bu esa maqol-matallarning qayta ko‘rib chiqilishiga, ba’zan hatto asl ma’nosiga qarama-qarshi ma’noda talqin qilinishiga olib keladi.

Rus tilidagi misol (hozirgi zamonga mos qo‘llanilishi): " Делай добро и бросай его в воду." ("Yaxshilik qil-da, suvga tashla") - bu maqol so‘z borgan sari atrofdagilarning yaxshilikni bilmasligiga ishora qilish maqsadida qo‘llanib kelmoqda.

Qoraqalpoq tilida: *"Jaqsılıq et te, tasla dár'yaǵa, bilse balıq biler, bilmese dár'ya biler."*- yordam berganing uchun o‘pkalama.

Ingliz tilidagi misol: No good deed goes unpunished (Hech bir yaxshi ish jazosiz qolmaydi) - yaxshilikning tabiatiga namoyishkorona-sintetik tushuncha berish.

Yaxshilik kafolatli ijobiy strategiya sifatida qabul qilinmay qoldi. Kinoyali qo‘llash axloqiy ideallar bilan real ijtimoiy mexanizmlar o‘rtasidagi farqni yaqqol ko‘rsatadi.

6. Konservator → tanqidchi. Ayrim an’anaviy paremiyalar eskirgan yoki hatto zararli deb qabul qilinib, ularning qayta baholanishiga sabab bo‘lmoqda.

Rus tilida: *" Смирение украшает человека."* ("Kamtarlik insonni bezaydi") - bu maqol tobora shaxsning passivligi yoki ezilishini oqlash deb hisoblanib, tobora ko‘proq tanqid qilinmoqda.

Qoraqalpoq tilida: *"Jaqsılıq etseń, jamanlıq kóriwiń de múmkin."*

yaxshidan yaxshi yaralmaydi - yaxshilikdan yaxshilik kutilmaydi - goho yaxshilik ham yomonlik tug‘diradi.

Ingliz tilida: *Spare the rod and spoil the child* (Tayoqni ayamasang, bolani buzasan) - ko‘pincha zo‘ravonlikni odatiy hol sifatida ko‘rsatadi deb hisoblanib, salbiy ma’noda talqin qilinadi.

Ijtimoiy tanqid va yangi axloqiy me’yorlar an’anaviy paremiologik fondning bir qismidan voz kechishga olib kelmoqda. Yaxshilik - shaxsning obro‘-e’tiborini himoya qilish, yomonlik esa - an’anaviy madaniyat buni ma’qullagan taqdirda ham, ushbu huquqlarning buzilishi deb tushuniladi.

Semantik o‘zgarishlar tipologiyasining umumlashtiruvchi xulosalari

Paremiologiyadagi semantik transformatsiyalar tipologiyasi nafaqat alohida maqol-matallarning o‘zgarishini, balki turli madaniy an’analardagi "Yaxshilik" va "yomonlik" tushunchalariga ta’sir etuvchi chuqur jarayonlarni ham kuzatish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil bir qator qonuniyatlarni ko‘rsatadi.

1. Rus tili an’anasida diniy-ruhiy va jamoaviy dominantlar saqlangan.

Rus paremiyalari ezgulikning ruhiy muvozanat, o‘zaro yordam, emotsional qo‘llab-quvvatlash va axloqiy fidoyilik bilan bog‘liq bo‘lgan ilohiy dunyo tartibi modellariga tayanadi. Hatto, zamonaviy kontekstlarda ham jamoaviylik va hamjihatlik kabi qadriyatlarga yo‘nalganlik saqlanib qolgan. Ruslarning dunyoqarashida ezgulik - bu, eng avvalo, mehr-shafqat va sabr-toqatda ko‘rinadigan ichki xususiyat, "yurak" holatidir. Shunga ko‘ra, yomonlik - uyg‘unlikning buzilishi, ijtimoiy yoki ruhiy aloqaning uzilishi, axloqiy idealdan chekinish tarzida tushuniladi. Bunday qarash rus paremiologiyasidagi ilohiy ma’nolarning barqarorligini va semantik o‘zgarishlarning nisbatan sekin kechishini tushuntiradi.

2. Qoraqalpoq tili an’anasi

Qoraqalpoq paremiologik birliklarida insonparvarlikning gumanistik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan: ezgu niyatlilik muloqot chog‘ida yaxshi tilak va o‘zaro hurmat muhitini ta’minlaydi, mehnatsevarlik axloqiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni tashkil etadi va rag‘batlantiradi, aqlga xulq-atvorni intellektual jihatdan nazorat qilish funksiyasi, or-nomusga esa hissiy-emotsional nazorat funksiyasi yuklangan. Insoniylik - boshqa barcha axloqiy tamoyillar, mexanizmlar va axloqiy me’yorlarning harakatini o‘ziga bo‘ysundiradigan ustuvor tamoyildir.

Islom dini qoraqalpoq etnosining o‘rtasiga ko‘p asrlik rivojlanishi va milliy transformatsiyasi orqali arab tilli madaniyatning kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Islomning ham, boshqa dinlar va madaniyatlarning ham o‘zaro ta’sirining murakkabligi qoraqalpoq madaniyatining o‘zida ham ko‘rinadi. Bundan tashqari, islom bilan an’anaviy e’tiqod-ishonchlar va urf-odatlarning qo‘shilib ketishi yuz berdi va bu tilda ham o‘z aksini topdi.

Qoraqalpoq tilining paremiologik birliklari Qur’on qonunlariga muvofiq ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni aks ettiradi, bu ham etnospetsifik jihatlarni ko‘rsatadi.

Qoraqalpoq axloqiy-etik paremiyasining shakllanishidagi ekstralingvistik omillarni o‘rganishda, islomning qoraqalpoqlar turmushiga ta’sir darajasi ko‘p hollarda musulmon ruhoniylarining jamiyatdagi roli va ahamiyatiga bog‘liq bo‘lganini yodda tutish kerak. Qoraqalpoq tilidagi paremiyalarning mental-ruhiy asosini, asosan, an’anaviy madaniyatning axloqiy me’yorlari va qisman Qoraqalpoq lingvomadaniyatining axloqiy kontinuumining qadriyatli-baholovchi jihatlarini belgilaydigan Qur’on qonunlari va ko‘rsatmalari tashkil etadi.

2. Ingliz tilida an’anasi sekulyarizatsiya va ratsionalizatsiyaga moyillikni namoyon etadi.

Ingliz maqol-matallarida yaxshilik va yomonlik konseptlari, ko‘pincha, pragmatik foyda, ijtimoiy samaradorlik va shaxsiy mas’uliyat nuqtayi nazaridan tushunilmoqda. Ezgulik - bu nafaqat axloqiy burch, balki barqarorlikni, muvaffaqiyatni va ijtimoiy me’yorlarning saqlanishini ta’minlaydigan harakatdir.

Yomonlik - bu ijtimoiy tartib va shaxsiy manfaatlarga zarar yetkazadigan qoidalar yoki strategiyalarning buzilishidir. Bunday ratsionallashtirish fazilatning qadr-qimmati, uning amaliy oqibatlari bilan belgilanadigan modelni shakllantiradi. Sakral va jamoaviy asoslardan individualizm, yuridik javobgarlik va utilitar axloqiy yondashuv foydasiga chekinish kuzatiladi.

3. Semantik o‘zgarishlar tub madaniy-tarixiy jarayonlarni aks ettiradi.

An’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o‘tish til darajasida axloqiy kategoriyalarning transformatsiyasi bilan birga kechadi. Rus va qoraqalpoq an’analarida bu jarayon jamoatchilik, ruhiy tashabbus va emotsional birlik kabi barqaror ideologemalarni saqlagan holda, yumshoqroq o‘tadi. Ingliz tilida esa, bu

jarayon tezroq namoyon bo‘ladi va zamonaviy jamiyatga xos bo‘lgan individualizm, xulq-atvorni yuridik tartibga solish, shaxsiy tanlov va ijtimoiy ratsionalizmning ustuvorligi kabi modellarni mustahkamlaydi.

Shunday qilib, paremiologik iboralardagi o‘zgarishlar sakrallikdan sekulyarlikka, ichki-axloqiylikdan sotsial-pragmatiklikka, jamoaviy etikadan individualistik etikaga qarab harakatni ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar nafaqat til dinamikasini, balki madaniy o‘ziga xoslik bilan dunyoning konseptual manzarasi transformatsiyasini ham aks ettiradi.

1. Paremiologiyadagi semantik siljishlar umumiy tendensiyani ko‘rsatadi: yaxshilik bilan yomonlikni sakral-ruhiy tushunishdan pragmatik va ratsional tushunishga o‘tish.

2. Rus va qoraqalpoq dunyo manzarasida ruhiylik, emotsionallik va jamoaviylik qadriyatlarining ahamiyati saqlanib qolgan, inglizcha tasvirlashda esa individualizm bilan ijtimoiy samaradorlikka intilish kuchaygan.

3. Madaniy tafovutlarga qaramay, "Yaxshilik" va "Yomonlik" konseptlarining o‘zagi umumiyligicha qolmoqda: yaxshilik - yorug‘lik, iliqlik va bunyodkorlik bilan, yomonlik esa - qorong‘ulik, sovuqlik va vayronkorlik bilan assotsiatsiyalanadi.

Yaxshilik va yomonlik konseptlariga bag‘ishlangan maqol-matallar xalq donishmandligining alohida bir qatlami bo‘lib, ular til egalarining qadriyatli yo‘nalishlari va mentalitetini aks ettiradi. Rus, qoraqalpoq va ingliz madaniyatlarida bu konseptlar bilan bog‘liq maqol-matallar axloq, mukofot yoki jazo, shaxsiy javobgarlik va ijtimoiy farovonlik haqidagi qarashlardagi o‘xshashliklarni ham, farqlarni ham ko‘rsatadi. Yaxshilik va yomonlik haqidagi paremiyalarning leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish bu tushunchalarni ifodalashning o‘ziga xos usullarini, badiiy vositalarini va madaniy ma’nolarini aniqlashga imkon beradi.

Xulosa:

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rus, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi yaxshilik va yomonlik konseptlarini ifodalovchi maqol-matallar mazkur xalqlarning milliy-madaniy qadriyatlari, dunyoqarashi hamda axloqiy me’yorlarini o‘zida mujassam etadi. Paremiologik birliklarning leksik-semantik tahlili ushbu konseptlarning mazmuni umumiy insoniy qadriyatlarga tayanishini, biroq ularning talqini har bir xalqning tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanishini tasdiqladi. Tahlillar natijasida rus va qoraqalpoq paremiologiyasida yaxshilik va yomonlik konseptlari ko‘proq jamoaviylik, ruhiy poklik, mehr-oqibat va axloqiy burch bilan bog‘liq holda ifodalansa, ingliz maqol-matallarida ushbu konseptlar pragmatizm, individual mas’uliyat, ijtimoiy samaradorlik hamda amaliy natijadorlik nuqtayi nazaridan talqin qilinishi aniqlandi. Bu esa zamonaviy ingliz lingvomadaniyatida sekulyar va utilitar yondashuvlarning ustuvorligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida paremiologik birliklarda kuzatilgan semantik siljishlar sakral dunyoqarashdan sekulyar, jamoaviy axloqdan individualistik va pragmatik axloqiy modelga o‘tish jarayonini aks ettirishi aniqlandi. Biroq madaniy tafovutlarga qaramay, barcha uch tilda yaxshilik bunyodkorlik, ezgulik va yorug‘lik timsoli, yomonlik esa vayronkorlik, zulmat va salbiy oqibatlar timsoli sifatida talqin qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari turli tizimli tillarda yaxshilik va yomonlik konseptlarining lingvomadaniy xususiyatlarini chuqurroq anglashga, paremiologik birliklarning semantik tabiatini ochib berishga hamda qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya va paremiologiya sohalaridagi keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy hamda amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
2. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
3. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
4. Воробьев В. В. Лингвокультурология: теория и методы. – Москва: РУДН, 1997. – 331 с.
5. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
7. Mieder W. Proverbs: A Handbook. – Westport: Greenwood Press, 2004. – 304p.
8. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 375 p.
9. Spears R. A. McGraw-Hill's Dictionary of American Proverbs and Sayings. – New York: McGraw-Hill, 2006. – 560 p.
10. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
11. Qoraqalpoq xalq maqallari. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 1985.
12. The Oxford Dictionary of Proverbs. – 6th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2015.
13. The Concise Oxford Dictionary of Proverbs. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.